MA’NAVIYATNING MOHIYATI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR

Davronov Z.D
TDIU professori

Annotatsiya: Ushbu maqolada ma’naviyat tushunchasining mazmun-mohiyati, uning inson kamoloti, jamiyat taraqqiyoti va davlat barqarorligidagi o‘rni falsafiy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Muallif ma’naviyatni insonning ichki dunyosi, axloqiy qarashlari, e’tiqodi va ijtimoiy faoliyati bilan uzviy bog‘liq hodisa sifatida izohlaydi. Maqolada mustaqillik yillarida ma’naviyat masalasiga berilgan e’tibor, xususan, I. Karimov asarlarida ilgari surilgan g‘oyalar asosida ma’naviy yuksalishning jamiyat hayotidagi ahamiyati ochib beriladi. Shuningdek, ma’naviyat tushunchasini faqat ijobiy jihatdan emas, balki unga zid bo‘lgan ma’naviyatsizlik holatlari bilan birgalikda o‘rganish zarurligi ta’kidlanadi. Muallifning fikricha, yoshlar tarbiyasida ma’naviyatsizlikning mohiyati va oqibatlarini tushuntirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: ma’naviyat, ma’naviy yuksalish, ma’naviyatsizlik, inson kamoloti, axloqiy tarbiya, jamiyat taraqqiyoti, barkamollik, komillik.

Ma’lumki, oxirgi yillarda ma’naviyat haqida juda ko‘p mulohazalar, oddiy fikrlar, falsafiy qarashlar hamda uning o‘rni va ahamiyati, mazmun va mohiyati haqida ijobiy qarashlar o‘rtaga tashlanmoqda. Bu bejiz emas albatta. Chunki, sobiq ittifoq davrida ma’naviyat xalqimizning qalbida saqlangan bo‘lsa-da, ammo bu falsafiy tushunchani tilga olishning o‘zi mushkul edi.

U asosan ideologiya, ya’ni mafkura bilan qorishib ketgan edi. Ming shukrlar bo‘lsinkim, mustaqillik sharofati ila ma’naviyat tushunchasi o‘zining maqomiga ega bo‘la boshladi. Bu endilikda sir emas. Mamlakatimiz taraqqiyotining barcha sohalari kabi mazkur sohada ham sezilarli o‘zgarishlar bo‘ldi. Jumladan, I.Karimov Prezident etib saylangan kuni – 1990 yil 24 martdayoq ma’naviyat haqida so‘zlab: “Prezident faoliyatining, respublika .... davlat tashkilotlarining muhim vazifalaridan biri – xalqni, insonni axloqiy va ma’naviy yuksaltirishdir” degan bo‘lsa, shu mavzuni keyinroq davom ettirib: “Men Prezident sifatida odamlarning ma’naviy tarbiyasi, tinchlik va xayrli ishlar maqsadida harakat qilayotgan har bir kishini qo‘llab-quvatlayman. U bilan hamkorlik qilaman”, - deb ta’kidlagan edi. Shu kabi fikrlar 1992 yilning 5 apreli va 2 iyulida Oliy kengashning sessiyasida, 31 avgustdagi mustaqillikning bir yilligiga bag‘ishlangan ma’ruzada, 8 dekabrdagi Oliy kengashning 11 sessiyasida, Viloyat, shahar va tuman hokimlari bilan uchrashuvlarda, 1993 yil 6

martda Oliy Kengashning 12 sessiyasidagi, aprel oyidagi qalam ahli bilan bo‘lgan uchrashuvda, 31 avgustda Amir Temur haykalining ochilishida, 2 sentabrdagi Oliy kengashning 13 sessiyasidagi ma’ruzalarida aytilgan. I.Karimov ma’naviyatning ahamiyati, qadr-qiymati, buguni va kelajagi haqida qayg‘urib, o‘z mulohazalarini bildirganki, bu sohadagi izchillikni ko‘rib hayratda qolasan kishi. Men I.Karimovning ikki-uch yil ichida aytgan fikrlarini eslatar ekanman, uzoqni ko‘zlab aytilgan o‘sha fikrlarning hayotga tatbiq etilganini va etilayotganini ko‘rib beixtiyor quvonaman. Fikrimni tasdig‘i sifatida shuni aytmoqchimanki, o‘tgan asrning 90-yillarida hozirgi davrlardagidek terrorizm, diniy ekstremizm, giyohvandlik, bir jinsdagi kishilarning turmush qurishlari, dunyoning u yoki bu chetida qirg‘inbarot urushlarning kelib chiqishi, qisqa qilib aytganda, ma’naviyatsizlik, ma’naviy inqiroz haqida, ilg‘or deb atalgan mamlakatlarda ham deyarli so‘z yuritilmas edi. Agar haqiqatdan ham ma’naviyatga e’tiborsizlik bilan qaralsa avvalo, tabiat va inson kelajagini xonavayron qilishga olib borilmaydimi? Buyukman deb atalayotgan mamlakatlar tabiatdagi foydali qazilmalar, suv resurslarining, cheklanganligiga qaramasdan o‘z manfaatlari yo‘lida ayovsiz foydalanmoqdalar. Amerika konstitutsiyaviy sudi, Yevropaning bir qancha mamlakatlaridagi ba’zi doiralar bir jinsli insonlarning turmush qurishiga xayrixohlik bilan qarashi eng yomon illat. Bunday holatlar yuzasidan qonunlarning chiqarilishi yuksak ma’naviyatlilikdanmikin?

Bunday yondashish tabiiyki insoniylikni, insonni o‘zini asrash emasku. Kelajak avlodni esdan chiqarish emasmi? Ollohga shirk keltirib insonni laboratoriyada yaratish ishlariga harakat qilayotganlarda barkamollik, komillik tugul yuksak ma’naviyat bormi deging keladi. Ana shu jarayonlarni qalbdan his qilgan Birinchi Prezidentimiz “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarini yozdiki, ushbu asarni nafaqat Markaziy Osiyo mamlakatlari tillariga (beshta), balki arab, turk tillariga ham tarjima qilinib, Misr arab respublikasi, Saudiya Arabistoni podshohligi, Quvayt, Birlashgan Arab Amirliklari, Bahrayn kabi mamlakatlarda taqdimot marosimlari o‘tkazildi. Demak, yuksak ma’naviyat yildan yilga o‘z dolzarbligini namoyish etib bormoda.

Ma’naviyat tushunchasining mazmuni haqida gapirganda I.Karimov: “Insonni inson qiladigan, uning ongi va ruhiyati bilan chambarchas bog‘langan bu tushuncha har qaysi odam, jamiyat, millat va xalq hayotida hech narsa bilan o‘lchab bo‘lmaydigan o‘rin tutadi”, - deb ta’kidlaydi. Demak, insoniylik yuksak ma’naviyatda, yuksak ma’naviyat insoniylikdadir. To‘g‘ri, ma’naviyatga ko‘plab ta’riflar berilgan, bundan keyin ham beriladi. Sababi inson tabiati, jamiyat hayoti bir joyda to‘xtab qolmaydi. Lekin baribir bizning fikrimizcha, insonning hayot negizi uning ma’naviyatiga borib taqalaveradi. Shu sababli ham, I.Karimov: “Ma’naviyat – insonning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch-qudratidir”, - deb ta’rif bergan. Bu ta’rifdan ko‘rinib turibdiki, inson mohiyati jihatidan birlamchi o‘ringa qo‘yilgan. Bu ta’rifda kelajakda beriladigan barcha ta’riflar uchun metodologik (uslubiy jihatdan) asos bor. To‘g‘ri, ma’naviyat tushunchasiga har qanday ziyoli inson o‘zining dunyoqarashi, falsafiy yondashuvi va e’tiqodi, ongi, his-tuyg‘usi jihatidan yondashadi, ta’riflaydi, xususiyatlarini tushuntiradi. Inson o‘zining ma’naviyatida aks etishi tabiiy albatta. Birov marhamatli yoki badjahl, birov mehnatsevar yoki dangasa, birov manman yoki kaltafahm, birov baxil yoki saxiy, birov yoqimli yoki yoqimsiz va hokazolar bo‘lishi mumkin. Shu jihatdan insonlar farqlanadilar.

Demak, ma’naviyat tushunchasi keng qamrovli umumiy falsafiy tushuncha bo‘lganligi uchun uni hayotda qo‘llash va mazmun-mohiyatini aniq tasavvur qilish davr taqozosidir. Afsuski, ma’naviyat tushunchasini iste’molga kiritganda uning qarama-qarshi tomonlarini ba’zilar unutadi. Hatto ta’kidlash lozimki, ba’zi bir murabbiylar ham bunga e’tiborni qaratmaydilar. Ular ma’naviyat deganda faqat ijobiy jihatlar nuqtai nazaridan yondashadilar, xolos. Holbuki, bu tushunchaning ikkinchi qismi ma’naviyatsizlikdir. Bu jihatni ta’kidlashimdan maqsad ma’naviyat haqida so‘z yuritilganda, ayniqsa, tarbiyaviy jihatlarda ushbu tomonni ham esdan chiqarmaslik lozim. Bunday xulosaga kelishimning sababi, ko‘pgina ommabop va ilmiy maqola, risola, qo‘llanma, darsliklarda ma’naviyatsizlik so‘ziga deyarli jiddiy yondashilmaydi. Misollar bilan tushuntirilmaydi. Go‘yoki butun insoniyat to‘la ma’naviyatli. Yurtboshimiz ta’kidlaganidek, oramizda kimdir “rahmon” izmida yursa, kimdir “shayton” izmida yuradi. Shu bois ma’naviyatsizlikka ham e’tiborni qaratish ayni muddaodir. Aslida, qisqa qilib, ma’naviyatsizlik ma’naviyatlilikning aksidir deb tushuntirish ham mumkin. Ammo mening ko‘p yillik tajribam shuni ko‘rsatadiki, birorta tarbiyachi yoki

ma’ruzachi bunga e’tiborni qaratgan emas. Zero, ma’naviyatsizlik – bu inson va insonlarning ijobiy faoliyatiga zid bo‘lgan hodisalar va zararli xislatlardir. Bu ta’rifni isbotlaydigan son-sanoqsiz misollar bisyor. Muammoga bunday yondashish ayniqsa, yoshlar faoliyati bilan bog‘liq. Zararli oqibatlar har qadamda uchraydi. Ularni yoshlarning barchasi ham to‘la tasavvur qila olmaydi. Shuning uchun ham mening fikrimcha, ularga ma’naviyatsizlikning, mazmun-mohiyatini chuqur anglashini lozim deb bilaman. Ma’naviyat tushunchasiga yalpi jihatdan yondashib xulosa qilib yurish unchalik yaxshi natija bermaydi.

Aslini olganda, umumiy ma’naviyatni bosqichlardan iborat ekanligiga etiborni qaratish lozim. Mening fikrimcha, umumiy ma’naviyat – ma’naviyat – yuksak ma’naviyat – barkamollik – komillik kabi tushunchalarni bir-biridan farqlash lozim. Afsuski, ushbu maqolada hajmni hisobga olib ular ustida to‘xtalishni iloji bo‘lmadi. Bu haqida maqola muallifining “Barkamollikka da’vat maktublari”, (Toshkent. “Tamaddun”, 2017.) kitobida o‘qish mumkin.

Ma’naviyat so‘zin, qila ol tahlil ,
Bu so‘zda mujassam yaxshi–yomonlik.
Yaxshilik ishlarin, qilaver tetik,
Ma’naviy yuksalsang, kelar yaxshilik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдуллаев М. Маънавият асослари. — Тошкент: Ўзбекистон, 2008.
2. Эркаев А. Маънавият ва тараққиёт. — Тошкент: Маънавият, 2009.
3. Қаҳҳоров Н. Маънавият асослари. — Тошкент: Маънавият, 2010.
4. Отамуродов С., Ҳусанов С., Раматов Ж. Маънавият асослари. — Тошкент: А. Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2002.
5. Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар. — Тошкент: Ўзбекистон, 2000.
6. Фалсафа: қомусий луғат / Тузувчи ва масъул муҳаррир Қ. Назаров. — Тошкент: Шарқ, 2004.